SIRDARYO VILOYATI SARDOBA TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

120800, Paxtaobod shaharchasi, Do'stlik ko'chasi,22uy, tel: (67)344-17-77, e-mail: sardoba.t@exat.uz

2022 - yil 18 - avgust 439-9-127-Q/22 Sardoba tuman hokimligi

TUMAN HUDUDIGA YO‘L BELGISINI O‘RNATISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” umummilliy dasturini amalga oshirish maqsadida, tuman Ichki ishlar bo‘limining 2022-yil 18-maydagi 37/989-sonli xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Tuman Ichki ishlar bo‘limining 2022-yil 12-maydagi 37/989-sonli xati inobatga olinsin.

2. “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” umummilliy dasturini amalga oshirish maqsadida, tuman hududidan o‘tuvchi barcha axamiyatidagi avtomobil yo‘llar va ko‘chalar bo‘yida joylashgan maktablar yaqinidan 1.21-“Bolalar” yo‘l belgilarini;

Shuningdek, “Quyitosh” mahallasi Bo‘ston ko‘chasining (ATB Xalq banki filiali oldi) qatnov qismiga 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” taqiqlovchi yo‘l belgisi **o‘rnatishga ruxsat etilsin.**

3. Sirdaryo ko‘priklardan hamda tuman yo’llardan foydalanish unitar korxonalari rahbari D.O‘razboyev va J.Jo’raboyev ushbu yo‘l belgilari o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman Yo‘l xarakati havfsizligi bo‘limi Q.Shodmonqulovga mazkur avtomobil yo‘llar va ko‘chalarda harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (U.Jo‘rayev), mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tashkillashtirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.Tursunmurodov zimmasiga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Xidirov**